

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MAMAJANOV SHAVKATJON OLIMJANOVICH

**PAXTA XOMASHYOSINI TOZALASHDA AJRALIB CHIQQAN
IFLOSLIKLARDAN PAXTA BO'LAKCHALARINI AJRATIB OLUVCHI
RX RUSUMLI REGENERATORNI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI OLIISH UCHUN TAYYORLANGAN
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Мамажанов Шавкатжон Олимжанович

Пахта хомашыосини тозалашда ажралиб чиққан iflosliklardan пахта bo'lakchalarini ажратиб олувчи RX rusumli regeneratorni takomillashtirish3

Мамажанов Шавкатжон Олимжанович

Совершенствование регенератора марки РХ, извлекающего частиц хлопка из отходов, выделяемых при очистке хлопка-сырца.....29

Мамажанов Шавкатжон

Improvement of the RX model regenerator separating the cotton cloves from impurities released during the cleaning of raw cotton.....57

Е'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works61

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
MAMAJANOV SHAVKATJON OLIMJANOVICH**

**PAXTA XOMASHYOSINI TOZALASHDA AJRALIB CHIQQAN
IFLOSLIKlardan PAXTA BO'LAKCHALARINI AJRATIB OLUVCHI
RX RUSUMLI REGENERATORNI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN TAYYORLANGAN
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3308 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muxandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifaciga www.nammti.uz va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Obidov Avazbek Azamatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxamadliyev Davlat Mustafayevich
texnika fanlari doktori, professor

Mo'minov Mansurbek Raximovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona polltexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD 03/30.12.2019.T.66.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 y. «05» avgust soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahar, Kosonsoy, 7-uy. tel: (+99869) 225-10-07, faks: 228-76-75; e-mail: nei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiyasi ishi bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (555-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «25» iyul kuni tarqatildi.
(2023 yil «2» iyundagi. № 122 raqamli reestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

R.M.Muradov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

[Handwritten signature]

X.T.Bobojonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, dotsent

[Handwritten signature]

Q.M.Xollqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to'qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi paxta xom ashyosi tolasi bo'lib, har yili jahon miqyosida 23-24 mln. tonna atrofida paxta tolasi ishlab chiqariladi. Hozirda toboro ortib borayotgan aholi soni hisobiga paxta tolasi iste'moli va unga bo'lgan talabning istiqbolda ortib borishi kutilmoqda¹ va toladan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda paxta yetishtirish, uning iste'mol xususiyatlarini yaxshilash, paxtani tayyorlash va dastlabki ishlash jarayonlarida yangicha texnologiyalardan foydalanishga katta masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada, jumladan paxtani terish, tashish, quritish, iflosliklardan tozalash jarayonlarida mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilish, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiruvchi avtomatlashgan, resurstejamkor texnologiyalarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta xom ashyosini nes-nobud qilmasdan, tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda yetishtirish hamda uni mahalliy texnologiyalardan foydalangan holda chuqur qayta ishlash asosida keng assortimentdagi yuqori sifat va past tannarxga ega bo'lgan paxta tolasining mahsulotlarini ishlab chiqarish va bu mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan ko'plab paxta tozalash korxonalari texnologik jarayonlarida yuqori samarali texnologik jarayonlarga asoslangan paxta xom ashyosini turli yot aralashmalardan tozalash va shu bilan birga uning tabiiy xususiyatlarini saqlash, paxta tolasining ishlab chiqarish miqdori va samaradorligini oshirish, resurstejamkor texnologiyalarni yaratish hamda texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish va tolaning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga paxta xom ashyosini tozalashning samarali texnologiyalarini yaratish borasida paxtani dastlabki qayta ishlash texnologik jarayonida avtomatlashtirilgan va energiyatejamkor texnika va texnologiyalardan foydalanish va tolaning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish natijasida korxonaga iqtisodiy samara keltirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda paxta xom ashyosini yot aralashmalardan tozalash, texnologik jarayonlarga turli innovatsion ishlanmalarni joriy qilish, mayda va yirik iflosliklarni mexanik va havo yordamida tozalash texnologiyasi va tizimlarni tadbiq qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida, jumladan, Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish surhatlarini ta'minlash bo'yicha: "To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki baravarga ko'paytirish hamda sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish"² bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni

¹ International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/>, email secretariat@icac.org. September 1, 2018

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

amalg oshirishda, xususan, paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi tabiiy xususiyatlarini saqlash hamda resurstejamkor mahalliy texnologiyalardan foydalanib tolani chiqindiga ketib qolishini oldini olish zamonaviy ishlab chiqarishning muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni, «Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 28 noyabrdagi PQ-3408 son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 253-sonli «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiyada tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxta xom ashyosini turli iflosliklardan tozalash texnologiyasini ishlab chiqish hamda iflosliklar tarkibidan paxta xom ashyosini samarali ajratib olish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli horijiy olimlar katta xissa qo'shganlar, jumladan P.G.Patil, G.R.Anap, W.S.Anthony, R.M.Sutton, R.V.Baker, P.A.Boving, J.W.Laird va boshqalar.

Paxtani turli mayda va yirik iflosliklardan tozalash texnologiyasini takomillashtirishga O'zbekiston olimlarining ham ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: T.I.Boldinskiy, R.G.Maxkamov, Ye.F.Budin, R.V.Korabelnikov, I.T.Maksudov, T.M.Kuliev, R.Z.Burnashev, G.D.Djabbarov, S.D.Baltabaev, B.G.Kadirov, I.K.Xafizov, R.M.Kattaxodxaev, A.D.Djuraev, D.A.Kotov, V.I.Kuzmin, M.M.Djamalova, R.M.Muradov, M.J.Koshakova, V.N.Guseynov, K.Abdullaev, D.A.Usmanov. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida mazkur texnologiyalar uchun yangi mashinalar nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida ishlab chiqildi va bu borada salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida paxta tozalash mashinalari chiqindilaridan paxtani ajratib olish uchun paxta regeneratori ishlab chiqildi, biroq texnologiyani ta'minlash jarayonini takomillashtirish va uning regeneratsiyalash hamda tozalash samarasini oshirish kabi muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti «Texnologik mashina va jihozlar» kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi «Paxta tozalash korxonasida paxta tolasi va chigitining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yahshilash» (2022-2023) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tozalash samarasini oshirish maqsadida paxta regeneratorda rezina-plankali baraban o'rnatish va plankalar burilish burchaklarini

o'zgartirish va yuqori ta'minlash qopqog'ini ikki chekkasidan bo'lish orqali chiqindini arrali barabanga tekis yoyilishini ta'minlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

regeneratorlarni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganish va tahlil qilish orqali tadqiqot yo'nalishini aniqlab olish;

regeneratorning ta'minlash qismida chiqindilarni tekis yoyilib arrali ishchi organlarga yo'nalish holatlarini, nazariy tomondan o'rganish;

yangi regeneratorning tajriba konstruksiyasini ishlab chiqish va unda tajribalarni o'tkazish, tajribalarni statistik tahlil qilish hamda matematik rejalashtirish usullari yordamida ishlab, asosiy parametrlarini aniqlash;

takomillashtirilgan regenerator maqbul parametrlarini o'rnatib, ishlab chiqarish sharoitida sinovlar o'tkazish hamda natijalari asosida iqtisodiy samaradorlikni hisoblash;

takomillashtirilgan regenerator qurilmasini ishlab chiqarishga joriy qilish va ishlatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida tozalash jarayonidan keyin paxta chiqindilaridan arrali regenerator yordamida paxta bo'laklarini ajratib olish texnologik jarayoni olingan.

Tadqiqot predmetini paxta tozalash mashinalari chiqindilaridan paxta bo'laklarini ajratib olish uchun ishlab chiqilgan paxta regeneratori tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida oliy matematika, nazariy va amaliy mexanika, eksperimental tadqiqotlar, matematik statistika, zamonaviy o'lchash usul va vositalaridan foydalanib eksperimentlarni rejalashtirish, o'tkazish va optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta regeneratoriga chiqindilarni bir me'yorda ta'minlash uchun ikki qismga ajratilgan kirish quvurili hamda chiqindidan paxtani ajratish samaradorligini oshirish maqsadida baraban o'qiga nisbatan qiya holatda rezina-plankali barabanni yangi konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

chiqindilardan paxta xom asyosini samarali ajratib olishni ta'minlash maqsadida takomillashtirilgan ajratuvchi rezina-plankali baraban valining mustahkamlik shartlarini matematik modeli ishlab chiqilgan;

takomillashtirilgan regenerator qurilmasining samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni maqbul qiymatlari ya'ni plankalarni baraban markazi tomon og'ish burchagi-15 gradus, ajratuvchi baraban aylanish tezligi-1000 ayl/min bo'lishi matematik rejalashtirish usuli orqali aniqlangan;

chiqindilardan paxta xom ashyosini bir me'yorda ajratuvchi regeneratorning asosiy konstruktiv parametrlari hamda texnologik rejimlarini maqbul qiymatlari regeneratsiya kolosniklari oraliq masofasi, 30 mm, plankalar soni 10 ta bo'lishi regression matematik model orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

tadqiqotning amaliy ahamiyati chiqindidan paxta xom ashyosini ajratish qurilmasining takomillashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan va uni joriy etish orqali korxonada tola sifati 0,1 % ga oshirildi;

qurilmaning kirish qismi ikkiga ajratilib, arrali barabanga chiqindilarni bir me'yorda kelishi ta'minlangan, ajratish va tozalash samarasini oshirish maqsadida ajratuvchi barabanga rezina-plankali baraban o'rnatilishi natijasida ajratish samaradorligi 88-89 % ga, yirik iflosliklardan tozalash samaradorligi 88,5-90% ga ortdi;

ishlab chiqilgan yangi konstruksiyadagi regenerator qurilmasida nazariy hamda eskperimental tadqiqotlar o'tkazilib, uning konstruktiv va texnologik kattaliklari aniqlangan va bu orqali uning samarali ishlashi ta'minlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot yakunida nazariy hamda eksperimental tadqiqotlar natijalari mutanosibligi, aniqlangan parametrlarga ega ishchi qismlari bo'lgan takomillashtirilgan qurilmada ishlab chiqarish tajribalari natijalari hozirgacha ishlatib kelingan yoki yaratilgan qurilmalar natijalari bilan solishtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxta bo'laklarining chiqindilardan ajralishi va plankali baraban yordamida bo'yicha harakatlanishining analitik bog'liqligini nazariy aniqlash, tozalash samaradorligining ishchi organlar ba'zi omillariga bog'liqligini nazariy aniqlash, paxta regeneratorining rezina-plankali barabani ratsional parametrlarini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tozalash mashinalari chiqindilaridan paxta bo'laklarini ajratib olish uchun takomillashtirilgan paxta regeneratorini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Takomillashtirilgan paxta regeneratorini joriy qilish orqali olingan natijalar asosida:

paxta chiqindilari tarkibidan paxtani ajratuvchi regenerator "Namangan Paxta Teks" MCHJ "Kosonsoy paxta tozalash" korxonasida ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zbekiston Paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2023 yil 15 martdagi 03/22-239-son ma'lumotnomasi). Natijada ajratish samarasi 99,5%, tozalash samarasi 88,7% ga yetgan va chiqindi tarkibida chigitli paxta miqdori 2,5 % dan kamaygan, korxonada ishlab chiqarilayotgan tola sifati 0,1 % ga yahshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 3 ta halqaro va 2 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida mahruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqolalar, jumladan 4 ta respublika va 2 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan, 2 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari keltirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalari amaliyoti, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi **“Paxta bo'lakchalarini chiqindi tarkibidan ajratish jarayonining hozirgi holati va tahlillar asosida tadqiqot vazifalarini aniqlash”** bo'limi adabiy manbalarni analitik tahliliga va tozalash jarayoni chiqindilaridan paxta xom ashyosini ajratish texnika va texnologiyalarining hozirgi holatiga bag'ishlangan. Ushbu bobda korxonada chiqindi tarkibida paxta xom ashyosini yo'qolish holatlari, chiqindilar tarkibidan paxta bo'laklarini ajratib olish uchun olib borilgan tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan.

Paxtani dastlabki ishlash jarayonlarida paxta xomashyosini tozalashga alohida eg'tibor qaratib kelingan. Chunki jahon bozorida tolaning tozalagi uning sifat ko'rsatkichlaridan asosiysi hisoblanadi. Yirik iflosliklardan tozalash sektsiyasi arrali baraban, harakatsiz sirpanuvchi cho'tkalar, arrali baraban atrofida o'rnatilgan trapetsiya ko'rinishli kolosniklardan tashkil topgan. Tozalash sektsiyasining har bir uzeli ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlarida har bir ishchi organni paxta xom ashyosi bilan ta'sirlashuvi nazariy va tajribaviy usullarda o'rganilgan. Turli diametrdagi ishchi organlar tadqiq qilingan. Barabanning chiziqli tezligi paxta chigitining mustahkamligi chegaralanganligi sababli, baraban diametrini kichikashtirish markazdan qochma kuchning ortishiga olib keladi va o'z navbatida tozalash samaradorligi ortadi.

Tadqiqotlar kolosniklar diametrini oshirish bilan tozalash samaradorligi va letuchkalarni chiqindiga o'tishi pasayishini ko'rsatdi. Kolosniklarning diametrini 25 mm.dan 15 mm.gacha kamaytirish bilan tozalash samaradorligin 62,0 % dan 79,5 % ga ortishiga erishilgan, letuchkalar (paxta bo'laklari)ni chiqindiga o'tishi esa 3,0 % dan 4,7 % ga ortgan. Ba'zi tadqiqotlarda esa kolosnik diametrini 20 mm qilib olish tavsiya etilgan. Kelgusidagi tadqiqotlar kolosnik panjaralarini takomillashtirishga bag'ishlangan. Doiraviy kesimli aylanuvchi kolosniklar, spiral shakldagi va grebenka shaklidagi kolosniklar taklif qilingan. Tozalash samardorligini oshirish maqsadida ba'zi tadqiqot ishlarida kolosniklarni pasayuvchi sinusoida bo'ylab o'rnatishni taklif etilgan.

Hozirgi vaqtlarda paxta tozalash korxonalarida chiqindilardan paxta xom ashyosini reneneratsiya qilish uchun aksial harakatli tozalash qurilmalari qo'laniladi va ularni regeneretorlar deb ataladi. Masalan, RX (1RX) rusumli tozalash qurilmalarini, va ular o'tgan asrning 80 yillari boshlarida paxta xom ashyosi RX-1 rusumli tozalash qurilmasi va PLPX oqimli liniyalar chiqindilaridan letuchkalarni ajratib olish uchun qo'llanilgan. SHuni eg'tiborga olish joizki, RX va RX-1 rusumli generatorlarning tozalash sektsiyalari bir xil bo'lib, ular kuchlanishglar ostida

ishlaydi va ta'minlagichlarining konstruktsiyalari bilan bir-biridan farqlanadi xolos. RX rusumli regenerator ishini kuzatish natijalari, regeneratsiyalanuvchi letuchkalarni tozalashlar soni 3-4 martaligini ko'rsatdi. Regeneratsiyalanuvchi letuchkalarining asosan yirik iflosliklar bilan o'ta ifloslanganligida bunday tozalashlar soni regenerator samaradorligini ta'minlash uchun 80% yetarli bo'ladi, bu esa tolaning sifatini pasayishiga sabab bo'ladi.

Paxta tozalash agregatlarining chiqindilarida mayda iflosliklarning miqdori 30% dan yuqori bo'lganida ifloslanganlik 5% dan yuqori bo'lishi kuzatiladi, regeneratorning tozalash samaradorligi esa 80% dan past bo'ladi, regeneratsiyalangan letuchkalarining ifloslanganlik darajasi esa 20 va undan ortiq foizga yetadi, bu esa tozalash uchun uzatiladyotgan paxta xom ashyosiga letuchkalarni aralashtirish natijasida ishlab chiqarilayotgan tola sifatining pasayishiga olib keladi.

RX rusumli regeneratorida ham eskirgan konstruktsiyalarning ishchi organlari qo'llanilgan. Masalan, qamrovchi arrali barabanlarning arralari yirik iflosliklarning ta'siri ostida sinib o'bechaykadan ajrab chiqadi, bu esa barabanlarning qamrash xossalarini pasayishiga olib keladi. Ajratuvchi cho'tkali barabanlarda cho'tkalar tez yediriladi va kaltayadi. To'plangan chiqindilar ta'sirida cho'tkalar arrali barabandan chetlashadi, bu esa 400-500 mm uzunlikdagi chegaralangan xududda kiritish patrubkasi 2 dan arrali baraban 5 ga chiqindilarni uzatishni murakkablashtiradi

Hozirgi paytlarda ishonchsiz va tez tez almashtirishni va ta'mirlashni talab etadigan bunday ishchi organlarning o'rniga bir muncha ishonchli va samarali ishchi organlar yaratilgan. Ushbu qamrovchi arrali tsilindrlar arrali barabanlar, ajratuvchi va yo'naltiruvchi metall plankali barabanlarni almashtirishga mo'ljallangan bo'lib cho'tkali barabanlar, maxkamlovchi metall kolosniklarni almashtirishga mo'ljallangan. Paxta xom ashyosi regeneratorining sxemalarini yuqorida keltirilgan taxlillaridan quyidagi xulosalarni qilish mumkin: uning asosiy kamchiligi mayda iflosliklar va erkin tolalarning tranzit holatida uchib o'tishiga yo'l qo'yuvchi va regeneratsiyalangan letuchkalarni qayta maqbul tozalashni ta'minlamaydigan pnevmota'minlagichning qo'llanishidir.

Yuqorida keltirilgan tahlil seriyali shilab chiqariladigan regeneratorning asosiy kamchiligi pnevmota'minlagich va ishchi organlarning konstruktsiyalari bilan bog'liqligini ko'rsatdi. SHu bilan birga asosiy va regeneratsiyalovchi ikkita asosiy barabanlarni qo'llanishi yetarli bo'lmay yangi usuldagi regeneratorni yaratishga asos bo'ldi. Ko'rsatilgan kamchiliklarni hisobga olgan holda paxta regeneratorini takomillashtirish maqsadida muayyan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirish rejalashtirildi. Avval olib borilgan tadqiqotlarni analitik tahlillari natijalari asosida paxta regeneratoriga plankali baraban joriy qilish hamda ta'minlash holatini yaxshilash vazifalarini hisobga olgan holda ishning maqsadi aniqlandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi "**Paxta regeneratori bo'yicha nazariy tadqiqotlar o'tkazish va asosiy parametrlarini aniqlash**" bo'limida asosan takomillashtirilgan qurilmani tanlashda o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Paxta tozalash korxonasining dastlabki ishlash jarayonida chiqindilardan regeneratsiyalab, ajratib olingan olingan tolali chigitlar (letuchkalar) maxsus

kameralarga jamlanadi va shu partiya paxtasini ishlab tugatilgandan so'ng ular quritish barabaniga yoki tozalash agregatining bosh qismiga beriladi. SHundan so'ng ular imkoni boricha hamma mayda iiflosliklardan tozalab olinadi. Bunda regeneratsiyalangan paxtalar tozalanayotgan paytda arrali tozalash qurilmalariga yuborilmasligi maqsadga muvofiqdir. Regeneratsiyalangan paxtani jamlash uchun tozalash tsexida yoki unga yaqin yerda o'lchamlari 30-30 m² yuzali va 3-4 m balandlikdagi kamera tashkil etilib, uning tepa qismiga KVM yoki KVVB rusumli kondensator o'rnatiladi. Kondensorning so'ruvchi quvuri regeneratorning chiqarish quvuriga biriktiriladi. Regenerator sifatida CHX rusumli mashinalardan foydalanilganda so'ruvchi quvur uning tarnovi ro'parasiga o'rnatiladi.

Regeneratsiyalangan paxtani qayta ishlashda arrali tozalagichlarni chetlab o'tish imkoni yo'q bo'lsa, ulardan ajralayotgan chiqindida to tolali chigit chiqishi to'xtamaguncha, tozalagichlarda qayta ishlash shart.

Hozirgi kunda zamonaviy paxta tozalash korxonalari dunyo raqobatida eng yaxshi sifatdagi (Q), nisbatan arzon narxdagi (C) va qisqa muddatda (D) mahsulotlarni ishlab chiqarishi lozim bo'ladi. Shuning uchun ular, avval murakkab va o'zaro umuman bog'liq bo'lmagan, loyihalash va ishlab chiqarish masalalarini avtomatlashtirish va bir-biri bilan bog'lash uchun kompyuter xotirasining ko'plab imkoniyatlari, tezkorligi va qulay grafik interfeysning imkoniyatlaridan foydalanishga intilishadi. Shunday qilib mahsulot ishlab chiqish va ishlab chiqarishning vaqti va narxi qisqaradi. Shu maqsadda avtomatik loyihalash (computer-aided design – CAD), avtomatik ishlab chiqarish (computer-aided manufacturing – CAM) va avtomatik ishlab chiqish yoki konstruksiyalash (computer-aided engineering – CAE) texnologiyalari qo'llaniladi. CAD/CAM/CAE (o'zbek tilida buni avtomatik loyihalash tizimlari – ALT deyiladi) tizimlari ma'nosini tushunish uchun mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarish jarayonida yechish va bajarish zarur bo'lgan turli masala va o'ratsiyalarni o'rganishimiz kerak. Barcha bu masalalar umumlashganda mahsulotning hayotiy sikli deyiladi.

Regeneratorlar va boshqa tozalash mashinalarini konstruksiyalashda barcha kompyuter tahlil uslublaridan chetki elementlar uslubidan keng foydalaniladi. Uning yordamida kuchlanishlar, deformatsiya, kuchlarning taqsimlanishi, havo oqimi kabi masalalar yechiladi. Konstruksiyalarni optimallashtirish bo'yicha ko'plab dasturiy vositalar mavjud. Optimallashtirish va tahlilni umumlashtirish yo'li bilan konstruksiya shaklini avtomatik optimallashtirish imkoniyatlarining tadqiqi olib borilmoqda. Bu yo'nalishda, masalan, turli zichlikdagi kichik elementlardan iborat bo'lgan, ikki o'lchamli to'rtburchak ob'ekt kabi, konstruksiyaning sodda dastlabki shakli nazarda tutiladi. So'ng, kuchlanishga chegaralarni hisobga olib aniq maqsadga erishish uchun, zichlikning konkret qiymatini aniqlashga imkon beruvchi, optimallashtirish jarayoni amalga oshiriladi. Maqsad qilib odatda vaznning minimallashtirish olinadi. Zichlikning optimal qiymatlarini aniqlashdan so'ng ob'ektning optimal shakli hisoblanadi. U zichlikning kichik qiymatli elementlarni chiqarib tashlash yo'li bilan hosil bo'ladi.

Takomillashtirilgan RX regeneratoridagi plankali baraban vali katta tezliklar hisobiga tashqi yuklanishlar ta'sirida bo'ladi. Plankali baraban detallarining

mustahkamligi va bikrligi yetarlicha bo'lmashligi, hamda tebranishlar arrachali barabandan paxtani ajratish jarayonini yomonlashishiga, paxtaning sifatini buzilishiga, detallarni bir xil yeyilmasdan muddatidan oldin ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. SHuning uchun baraban vali, plankalar, baraban qobig'i, gardishi (diski) va boshqa qismlarining kuch hisoblarini bajarish juda muhim.

1-rasmda plankali baraban vali va unga ta'sir etuvchi yuklanishlarning hisob sxemasi keltirilgan. Valga ta'sir etuvchi tashqi yuklanishlarga quyidagilar kiradi:

- tayanchlar orasidagi valga ta'sir etuvchi teng taqsimlangan yuklanish (ajratilgan paxta og'irligi ta'sirini, kichikligi uchun, hisobga olmaymiz)

$$q_1 = \frac{G_{val} + G_{gar} + G_{qob} + G_{pl}}{l_0} \quad (1),$$

bu yerda: G_{val} – tayanchlar orasidagi val og'irligi, kg;

G_{gar} – gardishlar og'irligi, kg;

G_{qob} – qobiqlar og'irligi, kg;


G_{pl} – planka og'irligi, kg;

Bundan tashqari quyidagilarni ham hisobga olish lozim:

q_2 - valning konsol qismida teng taqsimlangan yuklanish;

G_{shk} - shkiv massasi;

M_{bur} - elektromotorning burovchi momenti.



1-rasm. Plankali baraban valiga ta'sir etuvchi yuklanishlarning hisob sxemasi

Plankali baraban valiga ta'sir etayotgan burovchi moment M_{oy}

$$M_{bur} = 9550 \cdot \frac{N}{n} \quad \text{Nyuton} \cdot \text{m},$$


bu yerda: N – Plankali barabanga uzatiluvchi quvvat ($N = 3,0 \text{ kVt}$);

n – Plankali barabanning aylanish tezligi ($n = 1000 \text{ ayl / min}$).

$$M_{bur} = 9550 \cdot \frac{3,0}{1000} = 28,65 \quad \text{Nyuton} \cdot \text{m}.$$

Plankali baraban valini statik hisoblash uchun barcha ma'lum otlar tayyor. Hisobni osonlashtirish uchun tayanchlar orasidagi val, gardishlar, qobiqlar, plankani o'rniga q_1 dan, valning shkiv tagi o'rniga q_2 , shkiv o'rniga G_{shk} dan foydalanamiz.

Valning ishchi qismini tanlaymiz va $q_1 = 123,17$ kg ni, valning shkiv tagi qismini tanlaymiz va $q_2 = 5,45$ kg ni, valning shkiv tagi qismini tanlaymiz va $G_{shk} = 9,82$ kg ni, valning shkiv tagi qismini tanlaymiz va burovchi moment $M_{\text{byp}} = 28,65 \text{ N} \cdot \text{m}$ ni kiritamiz. Hisobni aniqroq bajarish uchun markazdan qochma kuchni ham hisobga olamiz va 1000 ayl/min deb yozamiz



2-rasm. Plankali baraban valining epyuralari

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, mustahkamlik zahirasi koeffitsientining eng kichik qiymati 166 ga teng. Vallar uchun bu koeffitsient $[k] \geq 1,5 \div 2,5$ bo'lishi kerak. Demak qurilma uchun biz tanlagan val talabga javob beradi.

Paxta xom ashyosini yirik iflosliklardan tozalash mashinalarida chiqindilar bilan ma'lum darajada chigitli paxta bo'laklari ham ketib qoladi. Chiqindiga tushib qolgan paxta bo'laklarini qayta tozalash uchun tozalagichlarga yuborish 1RX regeneratori orqali amalga oshiriladi. Mavjud regeneratorlarda paxtani uzatish havo oqimi orqali bajariladi. 1RX regenerorida chiqindilarni bir maromda uzatish uchun va ta'minlash samaradorligini oshirish maqsadida 2RX-M regeneratoriga vintsimon joylashgan qoziqlarga ega bo'lgan barabanlar o'rnatilib ishlatilgan. Bu regenerator texnologik tomondan atroflicha o'rganilgan va bir qancha texnologik parametrlari asoslangan. Lekin anchagina sodda va texnologik jihatdan ishlatish qulay bo'lgan

1RX regeneratori dinamik parametrlarini asoslash uchun tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

3-rasmda takomillashtirilgan 1RX regeneratorining dinamik modeli tasvirlangan. Ushbu qurilmaning tadqiqotlar jarayonida o'rganilgan kinematik tahlili shuni ko'rsatdiki, uning ishchi organlari va mexanizmlari qayta tozalovchi qurilma PT-10 bilan o'xshash bo'lib, faqat ushbu tozalagichda arrali barabanlar soni ko'p, hamda tozalagich mexanik parametrlari ko'plab tadqiqotlarda yetarlicha o'rganilgan. SHuning uchun 1RX regeneratori dinamikasini o'rganishda uning faqat o'ziga xos jihatlari inobatga olingan.


3-rasmda berilgan dinamik modelga binoan hamda yuqorida ta'kidlangan uslubiyat bo'yicha rezina-plankali barabanga ega takomillashtirilgan regeneratori uchun quyidagi tenglamalar tuzilgan:

$$\frac{dM_d}{dt} = 2M_{bp}\omega_r - 2M_{bp}P \frac{d\Delta\varphi_r}{dt} - \omega_b S_K M_d;$$

$$J_r \frac{d^2\varphi_r}{dt^2} = M_d - C\Delta\varphi - b \frac{d\Delta\varphi}{dt};$$

$$J_b \frac{d^2\varphi_b}{dt^2} = U_{gb}C\Delta\varphi + U_{rb}b \frac{d\Delta\varphi}{dt} - M_{bp} \pm \delta(M_{pl});$$

$$\Delta\varphi = (\varphi_r - U_{rb}\varphi_b); \quad \frac{d\Delta\varphi}{dt} = \left(\frac{d\Delta\varphi_r}{dt} - U_{rb} \frac{d\varphi_b}{dt} \right)$$




3-rasm. Rezina-plankali ishchi organiga ega regeneratori dinamik modeli

Bu yerda, φ_r, φ_b va $\omega_r = \dot{\varphi}_r, \omega_b = \dot{\varphi}_r$ mos ravishda, dvigatel rotori va rezina-plankali barabanning burilish burchagi va burchak tezliklari; J_r, J_{pl} – dvigatel rotori va rezina-plankali baraban inertsia momentlari, M_d – sistema qarshilik momenti; M_{bp} – rezina-plankali baraban qarshilik momenti; M_{pl} – paxta bo'laklarining rezina-plankali barabanga beradigan qarshiligi momentlarining matematik ehtimolligi.

Rezina-plankali, ikkita arrali, plankali barabanlarni va ifloslik shnekini yuritish mexanizmlaridan iborat regeneratoring matematik modeli quyidagicha:

$$\begin{aligned} \frac{dM_d}{dt} &= 2M_K\omega_r - 2M_KP_2 \frac{d\Delta\varphi_p}{dt} - \omega_b S_K M_d; \\ J_r \frac{d^2\varphi_r}{dt^2} &= M_d - C_1\Delta\varphi_{n_1} - b_1 \frac{d\Delta\varphi_{n_1}}{dt}; \\ J_{n_1} \frac{d^2\varphi_{n_1}}{dt^2} &= U_{g_{n_1}} C_1\Delta\varphi_{g_{n_1}} + U_{g_{n_1}} b_1 \frac{d\Delta\varphi_{g_{n_1}}}{dt} - \\ &\quad - S_2\Delta\varphi_{nsh} - b_2 \frac{d\Delta\varphi_{nsh}}{dt} - S_3\Delta\varphi_{n_1 n_2} - b_3 \frac{d\Delta\varphi_{n_1 n_2}}{dt} - M_{n_1}; \\ J_{sh} \frac{d^2\varphi_{sh}}{dt^2} &= U_{nsh} S_2\Delta\varphi_{nsh} + U_{nsh} b_2 \frac{d\Delta\varphi_{nsh}}{dt} - M_{sh} \pm \delta(M_{sh}) \end{aligned} \quad (2)$$

1RX regeneratoring arrali va plankali barabanlari aylanish xarakterini ko'rib chiqishda ishchi organlarning burchak tezliklarini o'rtacha qiymatlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Bunda $\Delta\dot{\varphi}_b \leq \Delta\dot{\varphi}_n$ va $\Delta\dot{\varphi}_b \leq \Delta\dot{\varphi}_{n_2}$ ni ta'minlash asosiy masala hisoblanadi. Bu esa regeneratoring ishlash jarayonida paxta bo'laklarini arratishlaridan ajratib olish rezinali plankalarning burchak tezligi arrali barabanlar tishlarining burchak tezliklaridan katta bo'lishi kerakligiga asoslanadi, $V_b > V_z$.



4-rasm. Arrali va rezina-plankali barabanlar o'rtacha qiymatlarining o'zgarishi hamda dvigatel validagi yuklanishni regenerator texnologik yuklanishiga bog'liq holda o'zgarishi grafigi

Takomillashtirilgan regenerator sxemasidan ko'rish mumkinki, arrali barabanlarning burchak tezliklari va tishlarning chiziqli tezliklari rezina plankalarning burchak tezliklari va chiziqli tezliklaridan ikki marta kamdir. Lekin qarshilik momentlarini, inertsia momentlarini, qarshilik momentlarining turli qiymatlarini, bundan tashqari elastik uzatmalarning elastik-dissipativ parametrlarini tag'sirini hisobga olgan holda uzatish nisbati $1,7 \div 1,8$ gacha pasayadi, bu esa paxtani arratishlaridan rezina-plankali baraban bilan ajratish samarasiga salbiy ta'sir qiladi.

4-rasmda regenerator arrali va plankali barabanlari burchak tezliklari o'rtacha qiymatlarining o'zgarishidagi bog'liqligi grafigi tasvirlangan.

4-rasmdagi grafiklar tahlilidan shuni aniqlash mumkinki: yuklanishni $M/M_r = (2,0 \div 2,4)$ gacha oshirish $\dot{\phi}_b$ ning o'rtacha qiymatini $(80 \div 84)$ s-1 gacha, $\dot{\phi}_{n_1}$ va $\dot{\phi}_{n_2}$ ni esa $(43,3 \div 45,3)$ s-1 gacha kamayishiga olib keladi. SHuning uchun tizim uchun tavsiya etilayotgan parametrlar quyidagini tashkil qilishi kerak: $M/M_r \leq (1,0 \div 1,2)$; $J_1 = (2,2 \div 2,3)$ kgm²; $J = (2,1 \div 2,2)$ kgm²; $C_1 = (225 \div 250)$ Nm/rad; $S = (150 \div 200)$ Nm/rad.

Takomillashtirilgan 1RX regeneratorining optimal parametrlarini tajribalarni matematik rejalashtirish usuli orqali aniqlash. Olib borilgan nazariy va amaliy tajriba natijalari asosida paxta regeneratorining sifatli ishlashini tahminlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi va ko'p omilli tajribalar o'tkazildi. Tajribalarni o'tkazish uchun Namangan-77 seleksiya navli, I-sanoat navli, 2-sinfl dastlabki iflosligi – 8,7 %, namligi – 9,3 %, paxta xomashyosini qayta ishlash davrida o'tkazildi.

Takomillashtirilgan regeneratordan ajralayotgan chigitli paxtaning sifatini baxolashning kriteriya chegarasi sifatida regeneratorning ajratish samarasi Y_1 , tozalash samarasi Y_2 va chiqindida paxta bo'laklari miqdori Y_3 olindi. Belgilangan kriteriyalarga ta'sir etuvchi asosiy omillar: X_1 – Plankalarni baraban markazi tomon og'ish burchagi, β gradus, X_2 – Ajratuvchi baraban aylanish tezligi, ayl/min, X_3 – regeneratsiya kolosniklari oraliq masofasi, mm.

Dastlabki tajribalar asosida regeneratorning ishlash sifatiga ta'sir etuvchi omillarning qadami va oralig'i 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Omillar oralig'i va ularning qadamlari

№	Omillar	O'lchov birligi	Omillarning belgilanishi		Qadami	Omillarning xisoblash oralig'i		
			Natural	Kodlangan		-1	0	+1
1	Plankalarni baraban markazi tomon og'ish burchagi	gradus	β	X_1	5	10	15	20
2	Ajratuvchi baraban aylanish tezligi	ayl/min	V	X_2	200	750	950	1150
3	Regeneratsiya kolosniklari oraliq masofasi	mm	h	X_3	15	10	25	40

Regeneratorning ajratish samaradorligining regressiya tenglamasi olindi:

$$Y_1 = 99.48542 + 0.19333X_1 + 0.36333X_2 + 0.16667X_3 - 0.90208X_1^2 - 0.19583X_1X_3 - 1.11874X_2^2 + 0.19583X_2X_3 - 0.43546X_3^2 \quad (3)$$

Tozalash samarasi Y_2 bo'yicha kriteriyasiga ko'ra Student kriteriyasining jadval ko'rsatkichi $T(28)=2.048$ ga, Koxren kriteriyasining jadval ko'rsatkichi $G(2,14)=0.3539$ ga, Koxren kriteriyasining xisobiy ko'rsatkichi $=0.2627458$ ga teng bo'lib, takrorlanuvchanlik dispersiyasi $= 0.0607145$ teng bo'ldi.

Bunda quyidagi regressiya tenglamasini olamiz:

$$Y_2 = 88.42084 + 0.21X_1 + 0.86X_2 + 1.25334X_3 - 0.93749X_1^2 + 0.45833X_1X_2 - 1.42082X_2^2 - 0.35833X_2X_3 - 2.02084X_3^2 \quad (4)$$

Chiqindida chigitli paxta bo'laklarining miqdori Y_3 bo'yicha kriteriyasiga ko'ra Student kriteriyasining jadval ko'rsatkichi $T(28)=2.048$ ga, Koxren kriteriyasining jadval ko'rsatkichi $G(2, 14)=0.3539$ ga, Koxren kriteriyasining xisobiy ko'rsatkichi $=0.1166667$ ga teng bo'lib, takrorlanuvchanlik dispersiyasi $= 1.428571E-02$ teng bo'ldi.

Bunda quyidagi regressiya tenglamasini olamiz:

$$Y_3 = 2.38125 - 0.05X_1 + 0.33X_3 + 0.48542X_1^2 + 0.10417 X_1X_3 + 0.36875 X_2^2 + 0.07917 X_2X_3 + 0.25208X_3^2 \quad (5)$$

Hosil bo'lgan optimizatsiya masalasi tasodifiy qidiruv usuli va zamonaviy kompyuter amaliy dasturlar yordamida yechildi va quyidagi optimal yechimlar olindi (2-jadval):

2-jadval

Matematik modelni optimallashtirish natijalari


Omillar	X_1	X_2	X_3
Kodlangan	0,184507	0,296613	0,283806
Natural	15,923	1009,323	29,257
yaxlitlangani	15	1000	30

Demak, o'tkazilgan tajribalar natijasi bo'yicha X_1 – plankalarni baraban markazi tomon og'ish burchagi, β -15 gradus, X_2 – Ajratuvchi baraban aylanish tezligi, 1000 ayl/min, X_3 – regeneratsiya kolosniklari oraliq masofasi, 30 mm ni tashkil etdi. Berilgan omillar qiymatida takomillashtirilgan 1RX paxta regeneratori samarali ishlashi kuzatildi, ya'ni ajratish samarasi 99,5%, tozalash samarasi 88,7% dan yuqori va chiqindi tarkibida chigitli paxta miqdori 2,5 % dan kamayganligiga erishildi.

Dissertatsiyaning uchinchi "**Paxta regeneratori takomillashtirish bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar o'tkazish**" bobida qurilmaning asosiy ishchi organlarini tanlangan hamda amaliy tadqiqotlar asosida uning samarali ishlashi aniqlangan.

Bugungi kunda paxta tozalash korxonalarida paxtani yirik iflosliklardan tozalash texnologik uskunalardan ajralayotgan chiqindi tarkibida paxta bo'laklarining miqdorini ortib borishi ularni chiqindi bilan yo'qolishiga olib keladi. Ushbu muammoni oldini olish maqsadida korxonalarda har bir tozalash tizimlari uchun bir donadan 1RX paxta regeneratori o'rnatilgan. 1RX rusumli paxta regeneratrlarining ajratuvchi cho'tkali barabanlari cho'tkalarining yemirilish ketishidan mavsumda cho'tkalar bir necha marta almashtiriladi. Bundan tashqari yemirilish cho'tkalar orasida har xil bo'lib, cho'tkalar tomonidan arrachali baraban arralaridan paxtani ajratish samarasi pasayib ketishiga olib keladi. SHuning uchun


cho'tkali baraban o'rniga rezina-plankali barabanni paxtani arra tishlaridan ajratish uchun foydalanish cho'tkalarni doimiy almashtirish bo'yicha muammoning yechimi hisoblanadi. "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ tomonidan ishlab chiqilgan 2RX-M paxta regeneratorining ajratuvchi barabanini rezina-plankali etib tayyorlangan, ushbu barabanli regenerator 2019 yilda "Bog'dod" paxta tozalash korxonasi joriy etilgan bo'lib, bugungi kungacha ta'mirsiz ishlatilib kelmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olib, 1RX rusumli paxta regeneratorlarining ajratuvchi cho'tkali barabanlarini rezina-plankali barabanlarga almashtirish tavsiya berildi. Ushbu tavsiyalar asosida amalda paxta tozalash korxonalarida ishlatilayotgan 1RX rusumli paxta regeneratorlarining tozalash va ajratish samarasini oshirish bo'yicha agregatning konstruksiyasiga ayrim o'zgartirishlar kiritildi 5, 6, 7-rasmlar. 1RX regeneratoriga chiqindili paxta arrali barabanning ikki chetidan kirib, havoning o'rtadan tortilishi chiqindida paxta bo'laklarining kamayishiga olib kelishi kuzatildi.



5-rasm. Takomillashtirilgan paxta regeneratorining konstruksiyasi

1-Pnevmota'minlagich, 2-asosiy tozalash arrachali baraban, 3-regeneratsiyali arrachali baraban, 4-ajratuvchi plankali baraban, 5-6-kolosnikli panjara, 7-chiqindili paxta kirish quvuri, 8-tozalangan paxta chiqarish quvuri, 9-chiqindi shnegi.

6-rasm. Regeneratorning ustki qopqog'ining sxemasi



7-rasm. Takomillashtirilgan rezina-plankali ajratuvchi baraban 1-rezinali-plankalar

Bunda chiqindili paxta havo quvurida harakati davomida ikki qismga ajralishida arrachali baraban tomon mayda bo'laklarga bo'linib kirishi bilan uni tozalash yengillashadi. Konstruksiyaning yana bir yangiligi ajratuvchi plankali baraban plankalarini o'qi bo'ylab baraban markazi tomon qiya burchak ostida o'rnatilishidir, bu paxtani arra tishidan yechib markaz tomonga yo'naltirishi vaqtida qayta tozalanish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari regeneratsiya barabanidan paxta bo'lakchalarining chiqindiga chiqish miqdorini kamaytirish uchun pastki kolosnikli panjara kolosniklar oraliq masofasini kamaytiriladi.

Plankalarni barabanga markazi tomon qiyalikda qotirish uchun o'rtasidan ikki qismga bo'lindi. Plankalarning uchlarini birlashtirish joylarini tekislashda tayyorlangan rezinalardan foydalanildi. 1RX regeneratori ajratuvchi cho'tkali barabani diametri 300 mm bo'lib, unga cho'tkalari o'rniga plankalarni joylashtirish uchun ularni soni aniqlanadi.

Tajribalarni o'tkazish vaqtida korxonada qayta ishlanayotgan Nam-77 selektsiya navli, III-sanoat navli dastlabki iflosligi 9,6% ni, namligi 10,2% ni tashkil etgan paxta xomashyosini UXK tizimida tozalashdan ajralayotgan chiqindi tarkibidagi paxta bo'laklari taxlil qilindi va paxta bo'laklarining miqdori 22,8 % ekanligi aniqlandi. Tajribalarni o'tkazishda ajratish samarasi aniqlash uchun har bir 30 minutda plankalar sonini o'zgartirib, ajratilgan paxta miqdori va arrada qolgan paxta miqdori aniqlandi, shu bilan birga chiqindiga o'tgan paxta bo'lakchalarining miqdori ham aniqlanib borildi. Ajratish samarasi formula yordamida hisoblandi.

Tajribalarda barabandagi plankalar sonini ajratish samarasiga ta'siri o'rganiladi, tajriba natijalari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Barabandagi plankalar sonini ajratish samarasiga ta'siri

№	Plankalar soni, dona	Ajratilgan paxta miqdori, kg	Arrada qolgan paxta miqdori, kg	Ajratish samarasi, %
1	8	19,6	1,15	94,5
2	10	20,6	0,9	95,8
3	12	23,6	0,96	96,1

Yuqoridagi 3-jadval ko'rinadiki barabandagi plankalar sonining 8 donasida 30 minutda ajratilgan paxta miqdori 19,6 kg ni, arra sirtida qolgan paxtalarni qo'lda ajratib tortilganida 1,15 kg ni tashkil etmoqda va ajratish samarasi xisoblanganida 94,5 % ekanligi aniqlandi. SHu kabi plankalar soni 10, 12 donada ajratilgan paxta miqdorlari belgilangan vaqt oralig'ida o'sib, 20,6, 23,6 kg ni tashkil etmoqda. Bunda ajratish samarasi 95,8, 96,1 % ni tashkil etib, ajratish barabanidagi plankalar sonining 10 va 12 donasida yuqoriligini ko'ramiz. Lekin, 12 dona planka barabanda zich joylashishi oqibatida aylanishida orasidan havo o'tishini qiyinlashuvi bilan elektrodvigatel'ga kuchlanish tushayotganligi kuzatildi, shuning uchun barabanda plankalar sonini 10 tada qoldirildi.

1RX rusumli regeneratoriga tajriba uchun tayyorlangan rezina plankali barabanni o'rnatib, baraban o'qi bo'ylab markaziga og'ish burchagini 10^0 , 15^0 , 20^0 , 25^0 ga o'zgartirish bilan tajribalarni o'tkazildi. Bunda plankalar soni tajribalar asosida 10-12 dona tavsiya berilgan, tajribalarni 10 ta planka o'rnatilgan xolatida amalga oshirildi, 12 ta o'rnatilishida ajratish samarasining oshganligi bilan plankalar barabanda zich joylashishidan unda havoning qarshiligini ortishi bilan elektrodvigatel'ga tushadigan yuklanishni ortishiga olib keldi (9-rasm).


Tajribalarni uch qaytarishda bajarildi va o'rtacha xisobi bo'yicha natijalari quyidagi 9-rasmda keltirilgan. Tajribalarni o'tkazishda korxonada qabul qilingan Nam-77 selektsiya navining I- va III- sanoat navlarining 2-sinfga mansub paxta

xom ashyosini qayta ishlash vaqtida foydalanildi. I- sanoat navli paxtaning iflosligi 4,8%, namligi 8,2% ni va III- sanoat navli paxtaning iflosligi 10,6% ni, namligi 9,8 % ni tashkil etadi.

9-rasmdan I-sanoat navidagi paxtalardan ajralgan chiqindi tarkibidagi paxta bo'lakchalarini ajratish koeffitsienti plankalarni baraban markazi tomon o'rnatish qiyalik burchagi 10⁰ da 90,6 % ni tashkil etib, 15⁰ da 95,2% ni va burchagi 20-25⁰ ga oshganidan so'ng ajratish samarasi 94,6, 92,8% gacha kamayganini, III-sanoat navida ham plankani o'rnatish qiyalik burchagini 15-20⁰ da ajratish samarasi yuqori 92,8-92,6% bo'lib, 25⁰ da kamayganini ko'rishimiz mumkin. Bu yerda plankani barabanga o'rnatish qiyalik burchagining ortishi arradan paxta bo'lakchasini ajratish burchagining ortishiga ta'sir etib, o'ta qiya xolatida plankalar arra yuzasidan paxta bo'laklarini ajratishining kamayganligini ko'rsatmoqda.




8-rasm. Tajriba uchun tayyorlangan regenerator




9-rasm. Ajratuvchi barabanda plankalarni baraban markazi tomon o'rnatish qiyalik burchagini ajratish samarasiga ta'siri


Ajratuvchi barabanning aylanish tezligi arra sirtidan paxta bo'laklarini ajratish samarasiga ta'siri katta bo'lib, bunda plankalarning baraban markazi tomon qiya burchagini o'zgarishi bilan aniqlaymiz. Bunda plankalarning qiya burchagini tozalash samaradorligiga ta'sirini ham o'rganamiz. Rezina-plankali ajratuvchi barabanning aylanish tezligini 750, 950, 1150 ayl/min ga o'rnatib tajribalarni amalga oshirildi. Tajribalarni korxonada qayta ishlanayotgan I-sanoat navida o'tkazildi. Laboratoriya taxlillari paxtaning dastlabki iflosligi 7,8% ni, namligi esa 8,9% ni ko'rsatdi. Tajriba o'tkazish vaqtida UXK paxtani tozalash tizimidan chiqindi bilan ajralayotgan paxta bo'laklari miqdori 18,6-20,5 % oralig'ida ekanligi aniqlandi. Tajriba natijalari 10-12-rasmlarda keltirilgan.



10-rasm. Plankali barabanning 750 ayl/min tezligida, og'ish burchagining o'zgarishini ajratish va tozalash samaradorligiga ta'siri




11-rasm. Plankali barabanning 950 ayl/min tezligida, og'ish burchagining o'zgarishini ajratish va tozalash samaradorligiga ta'siri



12-rasm. Plankali barabanning 1150 ayl/min tezligida, og'ish burchagining o'zgarishini ajratish va tozalash samaradorligiga ta'siri

